

**O‘QUV JARAYONLARINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETILISHINING DOLZARBLIGI****Jo‘rayeva Shohista Azmiddin qizi****Jo‘rayeva Estoda Mashrab qizi**

Termiz davlat pedagogika institute talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quv jarayonlarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish, ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati hamda talabalarning amaliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, pedagogik metodlar, interaktiv mashg‘ulotlar, AKT, pedagog malakasi, ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy rivojlanish, individual ta’lim, modulli kurslar.

Annotatsiya. В state раскрыта значимость организационного учебного процесса на основе современных методов, а также их роль в повышении качества образования и развитии практических навыков и критического мышления у студентов.

Ключевые слова: современное образование, педагогические методы, интерактивные занятия, ИКТ, квалификация педагогов, повышение качества образования, инновационный подход, нормативно-правовые документы, профессиональное развитие, индивидуальное обучение, модульные курсы.

Ta’lim, fan va innovatsiyalar inson kapitalini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib, davlat bu sohalarga strategik investitsiya yo‘naltiradi. Menimcha, bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlar mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, yosh avlodning bilim va salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Davlat va jamiyat birgalikda ta’lim va innovatsiyalarga sarmoya kiritsa, kelajakda katta yutuqlarga erishish mumkin[11].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev takidlaganidek, “Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo‘nalishlarni egallab, ancha ilgarilab ketyapti. Ularni qo‘llab-quvvatlasak, sifatli ta’lim berib, sharoit yaratsak, bundan ham katta natijalarga erishadi”. Ushbu jumlada yosh avlodning muvaffaqiyati — jamiyat taraqqiyoti va kelajagi uchun muhim omil ekani ta’kidlanadi.

XXI asr — bu axborot va innovatsiyalar asri bo‘lib, jamiyatning barcha sohalari qatori ta’lim tizimi ham tubdan o‘zgarish va yangilanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda mamlakatlar rivojlanish darajasi, birinchi navbatda, ulardagi ta’lim sifati va inson kapitali salohiyati bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda ta’limning barcha



bosqichlarida zamonaviy metodlar, texnologiyalar, yangicha yondashuvlarni joriy etish — dolzarb va strategik ahamiyatga ega vazifalardan biriga aylangan[10].

Ayniqsa, mashgʻulotlarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish — bugungi kunda pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tahliliy va amaliy koʻnikmalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy taʼlim texnologiyalari — yaʼni interfaol usullar, AKT vositalari, STEAM, CLIL, CASE, geymifikatsiya va masofaviy taʼlim platformalari foydalanilishi taʼlimni nafaqat zamon talablariga moslashtiradi, balki uni raqobatbardosh va hayot bilan uygʻun holda yuritishga xizmat qiladi. [3]

Hozirgi globallashtirish va raqobat sharoitida mashgʻulotlarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish nafaqat pedagogning, balki taʼlim muassasasining ham innovatsion salohiyatini belgilab beradi. Ushbu tezisda ushbu jarayonning dolzarb jihatlari, amaliy ahamiyati va milliy taʼlim tizimidagi oʻrni tahlil etiladi.

Pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish. Zamonaviy taʼlimda interaktiv usullar, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu usullar mashgʻulotlarni qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Masalan, elektron platforma va mobil ilovalar orqali oʻquvchilarga qoʻshimcha materiallar taqdim etish, onlayn testlar oʻtkazish mumkin. Shu bilan birga virtual va augmented reallik (AR/VR) texnologiyalari taʼlim jarayonini yanada intenziv va vizuallashtirilgan qiladi. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali oʻquv jarayonida talabalarning faol ishtirokini taʼminlash, ularning bilim olishga boʻlgan qiziqishini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin[9].

Oʻquv jarayonida faol ishtirok etishni taʼminlash. Zamonaviy mashgʻulotlarda talabalarning faolligi asosiy talablardan biri. Faol ishtirok etish natijasida ular mustaqil fikrlashni, muammolarni hal qilishni oʻrganadilar. Bu maqsadda guruhlik ishlar, loyiha usuli, keys-stadilar, rol oʻyinlari qoʻllaniladi. Bu usullar oʻquvchilar orasida muloqotni rivojlantirib, ijodiy fikrlashga undaydi. Oʻquv jarayonida faollikni oshirish uchun individual yondashuv va differentiated instruction asosiy vositalardan sanaladi.

Individual yondashuv va Differentiated Instruction (farqlashtirilgan oʻqitish). Har bir talabaning oʻqish qobiliyati va ehtiyojlari turlicha boʻlganligi sababli, pedagoglarning individual yondashuv qoʻllashi muhim. Bu metod taʼlimda hozirgi talablarga javob beradi, oʻquvchilarni ragʻbatlantirish va ularning zaif jihatlarni mustahkamlash uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, qoʻshimcha mashgʻulotlar, personallashtirilgan taʼlim rejalari va koʻmakchi resurslardan foydalanish kabi usullar shuning ichida. Individual yondashuv va differentiated instruction orqali oʻquvchilar oʻrtasida ochiqlik va



muloqot muhitini shakllantirish mumkin[8].

Ochiqlik va muloqot muhitini yaratish. Ta'lim jarayonida psixologik xavfsiz va erkin muloqot muhiti yaratish muhim. Talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalashlari, savol berishlari va bahs-munozaralarda ishtirok etishlari kerak. Bu esa o'quvchilarning fikrlash chuqurligini oshiradi, ijodiy va tanqidiy yondashuvni shakllantiradi. Shuningdek, pedagog va talabalar o'rtasida ishonchli munosabatlar vujudga kelishi kerak. Ochiqlik va muloqot muhitini yaratish, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishiga yordam beradi, bu esa ta'lim jarayoni samaradorligi hamda baholash tizimining aniq va xolis bo'lishiga zamin yaratadi[12].

Samaradorlik va baholash tizimi. Mashg'ulotlarning samaradorligini aniqlash uchun muntazam va aniq baholash zarur. Baxolash faqat test natijalariga emas, balki o'quvchilarning mashg'ulotlardagi faolligi, loyihalar, ijodiy ishlar va boshqa ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lishi kerak. Shuningdek, ta'lim jarayonida tezkor fidbek berish mexanizmi yo'lga qo'yilishi talab etiladi, bu esa talabalarning o'z kamchiliklarini o'z vaqtida tushunishlariga yordam beradi. Baxolash tizimining samaradorligi pedagoglarning kasbiy o'sishi va malakasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doimiy ravishda o'z ustida ishlashga undaydi

Pedagoglarning malakali bo'lishi va kasbiy rivojlanishi. Zamonaviy metodlarni samarali qo'llash uchun pedagoglarning doimiy ravishda malakasini oshirib borishi zarur. Treninglar, seminarlar, master-klasslar orqali yangi pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari va metodologiyalar bo'yicha bilimlarini kengaytirish muhim. Bu pedagoglarning o'z ishida innovatsion yondashuvlarni qo'llashiga va o'quv jarayonini takomillashtirishiga yordam beradi[7].

Shundan kelib chiqib hozirgi kunda ushbu yo'nalishlar bo'yicha bir qator oldimizda turgan mummolar borligi aslida xaqiqat, shuning uchun ushbu muammolarga bir qator yechimlarni topishga xarakat qildik.

Texnologiya va resurslar yetishmasligi. Qishloq va olis hududlarda internet aloqa va zarur qurilmalarning yetishmasligi mashg'ulotlarni zamonaviy usullar bilan o'tkazishda to'siq bo'lmoqda[5].

Yechim: Davlat va xususiy sektor hamkorligida infratuzilmani takomillashtirish, raqamli ta'lim loyihalarini kengaytirish.

Pedagoglarning tayyorgarlik darajasining pastligi. Yangi metodlarni qo'llash uchun pedagoglarning yetarli malakalari yo'qligi ta'lim sifatini pasaytiradi.

Yechim: Malaka oshirish kurslari va sertifikatlashtirish tizimini joriy etish, pedagoglar uchun mentorlik va qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish.

Metodik materiallar va dasturlar yetishmasligi. Zamonaviy va interaktiv o'quv



materiallari, qo'llanmalar kamligi o'quv jarayonini samarali tashkil etishga to'siq bo'ladi.

Yechim: Ilmiy muassasalar va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, elektron resurslar bazasini yaratish va kengaytirish.

Hukumat va jamiyat o'rtasida hamkorlikning kamligi. Davlat siyosatining amalga oshirilishida mahalliy jamoalar va ota-onalarning ishtirokini kuchaytirish lozim[6].

Yechim: Oila va jamoatchilikni ta'lim jarayoniga jalb etish uchun ochiq muhit yaratish, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish.

Mashg'ulotlarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish ta'lim sifati va natijalarini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar, AKT, individual yondashuv va muloqot muhitini yaratish shu jarayonda asosiy rol o'ynaydi. Muammolarni bartaraf etish uchun davlat, jamiyat va ta'lim muassasalari hamkorligini mustahkamlash zarur. Zamonaviy usullar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularni zamonaviy talablarga tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'z Res.si Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. - 77-modda.
2. <https://president.uz/uz/lists/view/8277>
3. O‘zbekiston Respublikasi **PQ-4884-son** — “2021–2023 yillarda ta'lim sifati yaxshilash va innovatsion loyihalarni joriy etish chora-tadbirlari”.
4. “Ta'limni rivojlantirish milliy dasturi” (2022–2026 yillar).
5. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELII. *Research Focus*, 3(11), 117-123.
6. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
7. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
8. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
9. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH



TEXNOLOGIYASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 494-498.

10. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.

11. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.

12. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.